



## IJTIMOYIY SOHA XARAJATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING ROLI: YANGI O'ZBEKISTON MISOLIDA

**G'aniyev Shahriddin Vohidovich**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti,  
"Budget hisobi va g'aznachilik" kafedrası Professore.  
Orcid 0000-0001-6555-8804*

**Rajabova Ma'mura Abduraxim Qizi**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Magistranti  
[rajabovarajabova08@gmail.com](mailto:rajabovarajabova08@gmail.com)*

## THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN IMPROVING THE EFFICIENCY OF SOCIAL SECTOR EXPENDITURES: THE CASE OF NEW UZBEKISTAN

**G'aniyev Shahriddin Vohidovich**

*Professor, Department of Budget Accounting and Treasury,  
Tashkent State University of Economics  
ORCID: 0000-0001-6555-8804*

**Rajabova Ma'mura Abduraxim qizi**

*Master's Student, Tashkent State University of Economics  
[rajabovarajabova08@gmail.com](mailto:rajabovarajabova08@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Maqolada ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi va dinamikasi 2022–2025 yillar kesimida rasmiy byudjet manbalari asosida tahlil qilinadi hamda davlat moliyaviy nazoratining (tashqi audit, ichki audit, g'aznachilik nazorati) samaradorlikni oshirishdagi mexanizmlari baholanadi. Xalqaro standartlar va diagnostikalar bilan solishtirma yondashuv asosida natijadorlikka yo'naltirilgan byudjetlash, riskga asoslangan audit va xarajatlarni qayta ko'rib chiqis bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Abstract:** The article analyzes the structure and dynamics of social sector expenditures for the period 2022–2025 on the basis of official budget sources and evaluates the mechanisms through which state financial control, including external audit, internal audit, and treasury control, contributes to improving efficiency. Based on a comparative approach using international standards and diagnostic assessments, practical

recommendations are developed on performance-oriented budgeting, risk-based auditing, and expenditure review.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy soha xarajatlari; byudjet samaradorligi; davlat moliyaviy nazorati; tashqi audit; ichki audit; riskga asoslangan nazorat; natijadorlikka yo'naltirilgan byudjet.

**Keywords:** social sector expenditure; spending efficiency; state financial control; supreme audit institution; internal audit; risk-based audit; performance budgeting.

**Kirish.** Ijtimoiy soha, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va madaniy-sport yo'nalishlari xarajatlari davlat byudjetining eng yirik va siyosiy jihatdan eng sezgir segmentidir. Shuning uchun bu segmentda "samaradorlik" masalasi bir vaqtning o'zida fiskal barqarorlik, inson kapitali va ijtimoiy adolat maqsadlari bilan bog'langan kompleks boshqaruv vazifasidir.

Biroq amaliyotda xarajatlar samaradorligi ko'pincha uchta sabablarga ko'ra pasayadi:

1. Xarajat majburiyatlari va natija indikatorlari orasida uzilish bo'lishi, ya'ni, pul → xizmat → natija zanjiri to'liq o'lchanmasligi;
2. Xarajatlar tarkibining inertsia xususiyati, ya'ni o'tgan davrdagi xarajatlar smetasi va me'yorlar, o'sha nisbatda pul ajratishda davom etilishi;
3. Muassasa va tashkilotlarda nazoratning faqat xato topish bilan cheklanib qolishi va boshqaruv qarorlariga foydali qayta aloqa bermasligi.

Shu nuqtai nazardan davlat moliyaviy nazorati ikkinchi darajali tekshiruv emas, balki byudjet jarayonining natijaga yo'naltirilganligini ta'minlaydigan institutsional mexanizm sifatida qaralishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: u me'yoriy xuquqiy xujjatga asossan qonuniylik va intizomni ushlab turadi, risklarni oldindan ko'radi, xarajatlarning iqtisodiyli-gi-samaradorligi-natijadorligini baholaydi va byudjet taqsimotini qayta kalibrlash uchun dalillarga asoslangan signal beradi.

Milliy kontekstda nazoratning huquqiy poydevori – O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyatini tartibga soluvchi qonun va byudjet jarayonining ochiqligi hamda tartib-qoidalarini belgilovchi Budjet kodeksi; institutsional islohot poydevori esa 2021–2025 yillardagi prezident farmonlari orqali kuchaytirib borilgan ichki audit, tashqi audit va raqamli risk monitoringining birlashmasidir.

**Material va metod.** Xalqaro amaliyotda davlat xarajatlari samaradorligi odatda "qiymat evaziga natija olish" tamoyili

asosida baholanadi. Bu yondashuvning asosiy maqsadi — sarflangan mablag'lar bilan erishilgan natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniq ko'rsatishdir. Ya'ni, qancha resurs sarflandi va buning evaziga qanday foyda olindi - shu savolga javob beriladi.

Bunda faqat mablag' sarflash emas, balki xizmatlar qanday tashkil etilgani ham muhim hisoblanadi. Shu sababli boshqaruv va nazorat tizimi uchta asosiy mezonga mos bo'lishi kerak: mablag'larni ortiqcha xarajatlarsiz tejab ishlatish, mavjud resurslardan maksimal foyda olish va yakunda kutilgan natijaga erishish.

Oliy audit organlari uchun xalqaro standartlar (ISSAI) davlat sektorida auditning mohiyati, turlari va audit jarayoni prinsiplarini belgilab, tashqi auditning faqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish emas, balki natijadorlikni baholash va jamoatchilikka hisobdorlikni kuchaytirish funksiyasini amalda qo'llash lozimligini ta'kidlaydi. Bu, jarayonda, "nazorat natijasi"ni faqat aniqlangan iqtisodiy jinoyatlar summasi bilan emas, balki qayta taqsimlangan resurslar, oldi olingan xar-xil xatarlar va yaxshilangan boshqaruv qarorlari bilan o'lchash zarurligini anglatadi.

Byudjet boshqaruvi nuqtayi nazaridan OECD tamoyillari davlat byudjeti jarayonini yagona va uzluksiz tizim sifatida ko'radi. Bu jarayon rejalashtirish, tasdiqlash, ijro etish, hisobot berish va nazorat bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuvda parlament va jamoatchilik ishtiroki, shaffoflik, real makroiqtisodiy prognozlar hamda natijaga asoslangan ma'lumotlardan foydalanish muhim standart sifatida qaraladi.

Alohida e'tibor xarajatlar smetasini muntazam tahlil qilish amaliyotiga qaratiladi. Bu usul orqali samarasiz yo'nalishlar aniqlanib, mablag'lar ustuvor va natija beradigan sohalarga qayta yo'naltiriladi.



Natijada, ijtimoiy sohada davlat xarajatlarining samaradorligi oshadi.

Yangi O'zbekiston kesimidagi diagnostikalar ham aynan shu muammolarni belgilaydi. World Bankning O'zbekiston bo'yicha 2022 yildagi PER (public expenditure review), ya'ni davlat xarajatlarini qayta ko'rib chiqish hisobotida ijtimoiy tarmoqlarda qiymat-evaziga salohiyatini oshirish imkoni yuqoriligi, ayniqsa xarajatlar tarkibini yaxshilash, xizmat sifati va natijalarni o'lchashni kuchaytirish zarurligi tushunriladi. PEFA 2024 bahosi esa huquqiy baza va ijro intizomi kuchayganini qayd etar ekan, strategik rejalashtirish-makroprognoz-yillik byudjet integratsiyasi, dasturga asoslangan byudjetlashtirish va davlat investitsiyalarini boshqarishni sektorlar bo'yicha to'liq joriy etish hali ham muammoli yo'nalish bo'lib qolayotganini ko'rsatadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasining 2024 yilgi hisobotida davlat moliyasini boshqarishni kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Unda byudjetga yil davomida keskin o'zgartirishlar kiritishni kamaytirish, fiskal xavflarni ochiq ko'rsatish va xarajatlar samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shuningdek, davlat xaridlarini to'g'ri tashkil etish orqali mablag'lardan samarali foydalanish, investitsiya xarajatlarini oddiy joriy xarajatlar bilan uzviy bog'liqlikda boshqarish zarurligi ham qayd etilgan. Bizning fikrimizcha bunday yondashuv byudjet mablag'laridan foydalanishda tartib va natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Milliy huquqiy adabiyotlar qatlamida Budjet kodeksi byudjet jarayonida ochiqlik, "Fuqarolar uchun byudjet" nashrlarini e'lon qilish va byudjet hujjatlarini jamoatchilik muhokamasidan o'tkazishni majburiy talab

sifatida mustahkamlagani bilan samaradorlik muhokamasining institutsional sharti hisoblanadi. Oliy audit organi sifatida Hisob palatasi haqidagi qonun esa ichki va tashqi auditning vakolatlari hamda hisobdorlik mexanizmlarini belgilab, nazoratning tizimli ta'sirini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot yondashuvi hujjatlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, institutsional taqqoslash hamda soddalashtirilgan hisob-kitoblarga asoslanadi.

Birinchi qismda 2022-2024 yil byudjet ijrosi bo'yicha "Fuqarolar uchun byudjet" hujjatlaridan ijtimoiy xarajatlar tarkibi bo'yicha rasmiy raqamlar ajratib olindi;

Ushbu ma'lumotlar yagona tizimga keltirilib, madaniyat va sport xarajatlari bir guruhga birlashtirildi, boshqa ijtimoiy xarajatlar esa umumlashtirildi. Shundan so'ng yillar kesimidagi o'zgarishlar hisoblab chiqilishini maqsada muvofiq deb hisoblaymiz.

Ikkinchi qismda Hisob palatasi rasmiy bayonlarida nazorat natijalari ko'rsatkichlari olinib, nazorat natijasini qancha tur va qanday miqyosda ifodalash mumkinligi bo'yicha jadval modeli tuzildi.

Uchinchi qismda me'yoriy huquqiy-hujjat asos, shu jumladan, Budjet Kodeksi; PF-6300, PF-100, PF-252 farmonlari;

Hisob palatasi to'g'risida qonun hamda xalqaro diagnostikalar - PEFA 2024, IMF Article IV 2024, WB PER 2022 tahlil qilinib, ijtimoiy soha xarajatlarida samaradorlikni oshirish uchun "nazorat-byudjetlash-ijromonitoring" zanjirining qaysi bo'g'inlari muhimligini aniqlashi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

**Natijalar.** Ijtimoiy xarajatlar davlat byudjeti tarkibida eng yirik qismi bo'lib qolmoqda. 2022 yilda davlat byudjeti xarajatlari 236,7 trln so'm bo'lsa, shundan

117,7 trln so‘m ijtimoiy xarajatlarga to‘g‘ri kelgan;

2023 yilda jami xarajatlar 281,1 trln so‘m, ijtimoiy xarajatlar 137,2 trln so‘m miqyosida ijro etilgan;

2024 yilda byudjet xarajatlari yanada oshib, jami 310,9 trln so‘mni tashkil etgan, ijtimoiy soha xarajatlari esa 152,3 trln so‘mga

**Jadval 1. Davlat byudjetida ijtimoiy soha xarajatlari tarkibi (2022–2024 ijro), trln so‘m.**

Yo‘nalish	2022 ijro	2023 ijro	2024 ijro
Ijtimoiy soha – jami	117.7	137.2	152.3
Ta‘lim	50.3	61.2	71.2
Sog‘liqni saqlash	27.3	19.2	36
Madaniyat va sport	4.3	5.3	6
Fan	1.4	1.8	2
Nafaqalar / moddiy yordam / kompensatsiya	19.4	31.1	15.4
Pensiya jamg‘armasiga transfertlar	11.1	13.8	16.3
Uy-joy dasturlari	1.0	1.1	1.4
Boshqa ijtimoiy xarajatlar	2.9	3.7	2.8

Jadval bir bo‘yicha uchta muhim kuzatuv mavjud:

Birinchidan, ta‘lim yo‘nalishi barcha yillarda ijtimoiy xarajatlar tarkibida eng katta ulushni egallab kelmoqda. Bu aynan ta‘lim tizimidagi xarajatlar samaradorligini oshirish butun ijtimoiy soha samaradorligiga eng katta ta‘sir ko‘rsatadigan asosiy nuqta ekanini bildiradi.

Ikkinchidan, sog‘liqni saqlash xarajatlarida sezilarli o‘shish kuzatilmoqda, bu aholining tibbiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ijtimoiy himoya va pensiya xarajatlari barqaror yuqori darajada

yetgan. Bu ko‘rsatkichlar ijtimoiy soha samaradorligi masalasi fiskal siyosatning “markaziy” nuqtasi ekanini ko‘rsatadi:

tizim yirik bo‘lgani uchun kichik foizli samarasizlik ham mutlaq miqdorda katta yo‘qotishga aylanadi; aksincha, kichik foizli optimallashtirish ham katta fiskal zaxira va qayta taqsimlash imkonini beradi.

saqlanib qolmoqda, bu davlatning ijtimoiy majburiyatlari kuchli ekanini anglatadi.

Davlat moliyaviy nazoratining amaliy natijalari oxirgi yillarda raqamlashtirish va riskga asoslangan yondashuv kuchaygani bilan farqlanadi.

PF-100 doirasida Hisob palatasiga real vaqt rejimida ma‘lumotlar bazalari va axborot tizimlaridan foydalanish imkonini berish, “Masofaviy audit” orqali risk tahlillarini boshqarish sxemasini tasdiqlash va ichki audit tizimini kuchaytirish kabi mexanizmlar nazoratning “keyin tekshirish” modelidan “oldindan ogohlantirish” modeliga siljishiga xizmat qilmoqda.

**Jadval 2. Davlat moliyaviy nazorati natijalari: 2025 yildagi audit tadbirlari va moliyaviy ta'sir ko'rsatkichlari (rasmiy bayonotlar asosida).**

Ko'rsatkich turi	2025 yil 9 oy	2025 yil yakuni
Audit tadbirlari soni	73 ta	93 ta
Masofaviy audit (ulushi)	ko'rsatilmagan	47 ta (50%+)
Ko'rsatmalar (direktivlar)	131 ta	ko'rsatilmagan
"Masofaviy audit" risk-tahlillari (avtomatik)	35 yo'nalish, 75 tahlil, 53 ishga tushgan	tizim infratuzilmasi kengaytirilgan
Risklar asosida bartaraf etilgan kamchiliklar	8,9 trln so'm	11 trln so'm (22 vazirlik doirasida)
Barvaqt oldi olingan xatoliklar/kamchiliklar	840 mlrd so'm	708 mlrd so'm
Xarajatlarni maqbullashtirish/optimallashtirish	ko'rsatilmagan	8,1 trln so'm
Xalqaro moliya institutlari loyihalarida maqbullashtirish	ko'rsatilmagan	4,1 trln so'm (5,7 trln imkoniyatdan)
Daromad yo'nalishida aniqlangan manbalar	ko'rsatilmagan	7,6 trln so'm (3,5 trln soliq; 4,1 trln majburiy to'lov)

Jadval ikkinchi, ikki muhim xulosani ko'rsatadi.

Birinchidan, nazorat natijalari faqat buzilishlarni aniqlash bilan cheklanmayapti. Endilikda u xarajatlarni optimallashtirish, qo'shimcha daromad manbalarini topish va moliyaviy xavflarni kamaytirish kabi natijalar bilan ifodalanmoqda. Bu esa nazorat tizimi samaradorlikka yo'naltirilayotganini bildiradi.

Ikkinchidan, masofaviy audit va tezkor ma'lumot almashinuvi nazorat jarayonini yengillashtirib, kam xarajat bilan ko'proq hajmni qamrab olish imkonini bermoqda. Biroq bu imkoniyat faqat aniqlangan muammolar asosida tezkor va to'g'ri qarorlar qabul qilinganda samarali bo'ladi. Aks holda, ko'p ma'lumot yig'ilib,

lekin amalda natija bermaslik holati yuzaga kelishi mumkin.

**Munozara.** Ijtimoiy soha xarajatlari samaradorligini oshirishda davlat moliyaviy nazoratining roli uchta darajada "sistemaviy qiymat" beradi.

Birinchi daraja — intizom va qonuniylikni preventiv ta'minlash. PF-100 ning asosiy mazmuni shundan iboratki, ichki audit va g'aznachilik nazorati operatsiyalar bajarilishi jarayonida moliyaviy risklarni aniqlashi, tashqi audit esa nazorat tizimining qanday ishlayotganini baholashi lozim. Ushbu yondashuv ijtimoiy sohaga xos risklar uchun ayniqsa muhimdir, chunki bu yerda katta hajmdagi ish haqi to'lovlari, transfertlar, subsidiyalar va davlat xaridlari amalga oshiriladi. Xatolar ko'pincha ko'plab kichik operatsiyalar darajasida yuzaga keladi va

ularni kech aniqlash ularni bartaraf etish xarajatlarini oshiradi.

Ikkinchi daraja — natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruvni dalillar bilan ta'minlash. ISSAI 100 va 300 tamoyillariga ko'ra, tashqi audit jamoatchilik ishonchini shakllantiruvchi muhim institut sifatida qaraladi. Bu esa faqat moliyaviy to'g'rilikni tekshirish bilan cheklanmay, balki davlat dasturlarining jamiyat uchun qanday natija berayotganini baholashni ham o'z ichiga oladi.

Yangi O'zbekiston bo'yicha PEFA 2024 hisobotida strategik rejalashtirish va dasturga asoslangan byudjetlashtirishni joriy etishda qiyinchiliklar mavjudligi qayd etilgan. Bu esa ijtimoiy sohada samaradorlikka erishish faqat nazorat organlariga emas, balki butun byudjet boshqaruvi tizimiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Uchinchi daraja — resurslarni qayta taqsimlash jarayonini tezlashtirish. OECD tavsiya etadigan xarajatlarni qayta ko'rib chiqish amaliyoti audit va monitoring ma'lumotlari asosida amalga oshirilsa, ijtimoiy sohada past natija berayotgan yo'nalishlarni aniqlash, xarajatlar hajmini optimallashtirish, xizmatlar sifatini oshirish hamda mablag'larni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Bu yerda PEFA va Xalqaro valyuta jamg'armasi tavsiyalari o'zaro uyg'unlashadi. Ya'ni, byudjet hujjatlari, fiskal risklar va investitsiya jarayonlarini yagona tizimda boshqarish samaradorlikni ta'minlovchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Quyidagi sxema nazoratning samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi qayta aloqa zanjirini soddalashtirilgan shaklda ifodalaydi. Amaliyotda esa ushbu jarayonning har bir bosqichi aniq ko'rsatkichlar (KPI) va mas'uliyat mexanizmlari bilan mustahkamlanishi zarur.

**Xulosa.** 2022–2025 yillar kesimida rasmiy byudjet nashrlari ijtimoiy soha xarajatlari byudjetning eng yirik qismi bo'lib qolayotganini ko'rsatadi; demak, samaradorlikni oshirish bo'yicha har qanday islohotning eng katta fiskal va ijtimoiy qaytimi aynan shu segmentda yuzaga chiqadi.

Xalqaro diagnostikalar (PER, PEFA, IMF) ijtimoiy sektorda qiymat-evaziga salohiyati yuqoriligini tan oladi, biroq natijadorlikka yo'naltirilgan byudjetlash, investitsiya va joriy xarajatlar integratsiyasi, fiskal risklarni boshqarish hamda PBB kabi institutsional bog'lanishlar kuchsiz qolsa, resurslar o'sishi natijaga to'liq aylanmasligini ham ko'rsatadi.

Davlat moliyaviy nazorati, ichki audit va tashqi audit, raqamli risk monitoringi aynan ushbu bog'liqlik muammosini hal etishga xizmat qiluvchi mexanizm bo'lishi mumkin. PF-100 va PF-252 doirasida raqamlashtirish, riskga asoslangan masofaviy auditni joriy etish, vazirliklar darajasida ichki auditni kuchaytirish hamda nazoratni oldini oluvchi shaklga o'tkazish ijobiy institutsional tendensiyani shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

Endi asosiy vazifa nazorat natijalari va aniqlangan risk signallarini aniq ko'rsatkichlar bilan bog'lash, ularni xarajatlarni qayta ko'rib chiqish jarayoni va byudjet qarorlariga majburiy tartibda kiritish hamda xizmatlar sifatini baholash va jamoatchilik oldidagi hisobdorlikni kuchaytirish orqali ijtimoiy soha xarajatlarida barqaror samaradorlikni ta'minlaydigan tizimni shakllantirishdan iborat.

Ushbu takliflar ijtimoiy soha xarajatlari katta ulushga ega bo'lgan sharoitda davlat moliyaviy nazoratdagi juzziy kamchiliklarini aniqlash hamda samaradorligini boshqarishga qaratilgandir.



1) Natijaga asoslangan yondashuvni joriy etish.

Ijtimoiy sohaning asosiy yo'nalishlari bo'yicha mablag', xizmat va natija o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi va nazorat jarayonlarida qo'llanilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

2) Riskka asoslangan auditni kuchaytirish.

Masofaviy audit natijalari tezkor qarorlar bilan bog'lanib, aniqlangan har bir risk turi bo'yicha aniq choralar va muddatlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

3) Ichki audit tizimini rivojlantirish.

Ichki audit boshqaruv risklarini aniqlovchi mustaqil funksiyaga aylantirilib, uning vakolatlari va professional darajasi oshirilishi lozim.

4) Ijtimoiy to'lovlarda manzillilikni ta'minlash.

Nafaqa va kompensatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar aniqligi, mezonlar va to'lovlar mosligi muntazam tekshirilib, natijalari ochiq e'lon qilinishi zarur.

5) Davlat xaridlarida samaradorlikni oshirish.

Narxlarni taqqoslash, raqobat darajasini baholash va shartnomalar ijrosini monitoring qilish orqali mablag'lardan oqilona foydalanish ta'minlanishi lozim.

6) Xarajatlarni qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish.

Ijtimoiy sohaning ayrim yo'nalishlari bo'yicha muntazam tahlillar o'tkazilib, mablag'larni ustuvor yo'nalishlarga qayta taqsimlash mexanizmi shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir.

7) Byudjet o'zgarishlarini tartibga solish.

Yil davomida keskin o'zgarishlar cheklanib, muhim ijtimoiy xizmatlar uchun minimal moliyalashtirish kafolatlari belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

8) Hisobdorlikni natijaga yo'naltirish.

Nazorat hisobotlarida mablag'larning sarflanishi bilan birga erishilgan natijalar ham baholanishi zarur.

9) Normativ huquqiy-hujjatlarni takomillashtirish hamda tizimlashtirish.

Audit natijalari asosida aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun huquqiy hujjatlar muntazam yangilanib borilishi maqsadga muvofiqdir.

10) Jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Ijtimoiy soha bo'yicha ochiq ma'lumotlar aholiga tushunarli shaklda taqdim etilib, nazoratning ochiqligi va javobgarlik darajasi jamoatchilikning har biriga tegishliligi tushuntirilishi maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 30.04.2023-y.
2. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet Kodeksi" Toshkent, 26.12.2013-y.
3. O'zbekiston Respublikasi Hisob Palatasi Qonuni O'RQ-546-son.01.07.2019-y.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Fuqarolar uchun byudjet, 2022.
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Fuqarolar uchun byudjet, 2023.



6. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Fuqarolar uchun byudjet: 2024
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-100-son farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-252-son farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari (Lex.uz).
10. O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjati.
11. O‘zbekiston Respublikasi normativ hujjati.
12. World Bank. Public Expenditure Review Report.
13. World Bank. Analytical Report.
14. International Monetary Fund. Country Report, 2024.
15. OECD. Budgetary Governance Principles.
16. OECD. Spending Review Guidelines.
17. INTOSAI. ISSAI 100 Fundamental Principles.
18. INTOSAI. ISSAI 300 Performance Audit.